



**“MAKTABGACHA TA’LIM:  
KECHA, BUGUN VA ERTAGA”  
MAVZUSIDAGI**

**Respublika ilmiy-amaliy  
konferensiya materiallari  
(2021 yil 21 may)**

**II**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



**A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**

**“MAKTABGACHA TA'LIM: KECHA, BUGUN VA ERTAGA”  
MAVZUSIDAGI**

**Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari  
II QISM  
(2021 yil 21 may)**

**Jizzax-2021**

**KBK: 74.14**

**UO'K: 37.1 (054) =00**

**E-59**

**“Maktabgacha ta’lim: kecha, bugun va ertaga” mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2-qism). Jizzax, 2021. – 276 bet.**

**Mas’ul muharrir:**

**Meliyev Xamidulla Abdullayevich – *pedagogika fan. nom., professor***

**Tahrir hay’ati:**

**M.S.Usmanova, X.Raxmonqulova, M.Norqo`ziyeva, Sh.Buranova**

**Taqrizchilar:**

**Kushvaktov Ne’mat Xusanovich - *pedagogika fanlari nomzodi, dotsent***

**Meliboyev Anvar Rashidovich - *pedagogika fanlari nomzodi, dotsent***

**Kushakova Gulnora Egamkulovna – *p.f.f.d. (PhD), v/b.dotsent***

**Texnik sahifalovchi:**

**Ergasheva Kamola Orifovna**

*Ilmiy-amaliy konferensiya materiallariga oid mazkur to‘plam, hozirda e’tirof etilayotgan maktabgacha ta’lim tizimining eng zamonaviy metodlarini amaliyotga tadbiq etil0069shiga bag‘ishlanganligi bilan ahamiyatlidir.*

*Shuningdek, to‘plamda maktabgacha ta’lim sohasida olib borilayotgan islohatlar, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga va maktabgacha ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga ta’lim berishga zamonaviy yondashuv, xorijiy tajribalar masalalari, maktabgacha ta’limda bolalarni ijtimoiy-hissiy, jismoniy rivojlantirish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish vositalari, tarbiyalanuvchilarda nutq, muloqot, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini shakllantirish metodlari va ijodkorlikni rivojlantirish, mahalla, oila va MTT hamkorligida bolalarni maktabga tayyorlash, oliy ta’limda bo‘lajak pedagog-tarbiyachilarni tayyorlashga kreativ yondashuvkabi yirik masalalarni ijobiy hal etishning nazariy jihatlariga keng o‘rin berilgan.*

*To‘plam talabalar, magistrilar, tayanch doktorantlar va barcha o‘quvchilar ommasi uchun mo‘ljallangan.*

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 2 martdagi 78-F sonli farmoyishiga asosan nashrga tavsiya etilgan

Ma’ruzalar materiallarida yoritilgan tarixiy jarayonlar, ma’lumotlar va chiqarilgan xulosalarning haqqoniyligiga mualliflar javobgar.

va shu kabilarning bajarilishi darajasi hisobga olish kerak. Bolalarning hamkorligidagi faoliyati uchun uyusha olish ko'nikmalarini rejalashtirishda alohida hisobga olinsa, haqiqiy va asosli bo'ladi".

Rejaning asosligida joriy ijtimoiy hodisalar, katta yoshlilar mehnati va turmushning xususiyati, tabiiy atrof-muhit va tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarning hisobga olinishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyevning SH.M. "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. T.: -2016y. 29-dekabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 30 sentyabr

### **Internet saytlar**

3. <http://www.tsic.uz>

4. <http://www.usia.uz>

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MILLIY URF – ODATLAR VA ANANALAR ASOSIDA MEHR – SHAFQAT HISLARINI TARBIYALASH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA.**

**G.Kushakova JDPI dots v/b.  
E.Ro'zmonov JDPI talabasi**

Respublikamizda Prezident Sh.M.Mirziyoyevning "Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi" – degan fikrlari asosida tarbiya va o'qitish usullari, axborot-kommunikasiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash

ko'nikmalariga ega professional oliy ma'lumotli tarbiyachilarni tayyorlash, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab ta'limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, kreativ yondashuv asosida zamonaviy ta'lim texnologiyalarining integrasiyasini ta'minlash pirovardida tarbiyalanuvchilarning nutq o'stirish va tafakkurini uzluksiz rivojlantirib borish, farzandlarimiz milliy urf-odatlar va ananalar asosida tarbiyalashga katta e'tibor qaratilmoqda.

“Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlari va o'quv - tarbiyaviy rejalariga qo'yilgan davlat talablarini takomillashtirish dolzarb masalaligicha qolmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasida zamonaviy bilim, nufuzli pedagogika universitetlari va maktabgacha ta'lim muassasalari ilg'or xorijiy tajribalarini o'rganish, axborot - kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilayotgan bugungi kunda, aksariyat maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamon talablariga javob bermayotgani achinarli hol albatta. Bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olish ko'rsatkichi hamon pastligicha qolmoqda”<sup>11</sup>

Ta'lim tarbiya milliy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirishda asosiy o'rinni egallaydi. Tariximizda milliy madaniyatimiz, milliy urf – odatlarimizga e'tibor kuchaydi. Haqiqatdan ham bugungi kunda O'zbekiston mustaqillikni mustahkamlash va kelajakda istiqbol istiqbolini rivojlantirish komil insonlarga bog'liq. Chunki, komil insonlar tufayli fan va madaniyat, sanoat va qishloq xo'jaligi taraqqiy topadi. Shunday qilib, bugungi kunda ta'lim tarbiya taraqqiyotidagi asosiy vazifani – bu komil insonni voyaga yetkazish uchun uni tarbiyalashdan iborat.

Biz iste'dodli, mehr – muruvvatli oqibatli, fidoiy bolalarimizga bilim va kasb cho'qqilarini zabt etish uchun qanoat berishimiz kerak. “Vatanim deb, elim deb, bugungi kun ozod O'zbekiston uchun o'z hayotini, jonini fido qilganlarni yod etish ulug' ajdodlarimizning ruhlarini shod qilishni insoniy burchimiz deb bilamiz”, I.A.Karimov

---

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori . 2016 yil 29 dekabr

“Hikmatli so’zlar”, “Inson baxt uchun tu’guladi” qismida shunday deb ta’kidlaganlar.

Inson hayotda maktabgacha yosh, maktab yoshi davri hamda ijtimoiy yetuklik – katta yosh davri bo’ladi. Bu davrlarning har biri ichida qisqacha yosh bosqichlari bo’lib ular inson kamol topishining muayyan, o’ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Masalan bog’cha yoshidan bolalar bilan olib boriladigan ta’lim tarbiya ishining vazifasi va mazmuni vosita va metodlari bu yoshdagi bolalarning nozikligi, yordamga muhtojligini moslashtirilganligini e’tiborga olgan holda ishlab chiqiladi.


Katta maktabgacha yoshdagi bolalar boshqalarga nisbatan taqlid qilishga juda ham moyil bo’ladilar. Taqlid qilish boshqa odamlarning hulq va hatti harakatlarini takrorlash demakdir. Bolalar odatda ota – onasiga va tarbiyachilariga, o’rtoqlariga, mashhur kishilarga va badiiy asarlaridagi qahramonlarga, ularning ishlariga taqlid qiladilar. O’tmishdagi atoqli pedagoglarning hammasi ham bolalarning taqlid qilishga moyil ekanligini uqtirib o’tadilar.

O’sish davrining turli bosqichlariga bolalarning taqlid qilishga moyilligi ham har xil bo’ladi. Katta yoshdagi bolalar kattalar tomonidan qilinayotgan har bir harakatni kuzatadilar va ongli ravishda taqlid qiladilar. Kattalar o’zlarini qanday tutsalar, ular ham o’zlarini shunday tutadilar.

Taqlid qilish bola uchun huddi mustaqil ijod singari zarurdir. Tunda ham bolaning o’ziga xos hislatlari namoyon bo’ladi. Bolaning ongi irodasi o’sgan sari insonlarga nisbatan kuzatish taqlid, yordam odat tusiga kiradi. Bolalar eng birinchi navbatda eng yaxshi va munosib hisoblangan hulqlarga taqlid qiladilar.

Bolalarning ibrat bo’ladigan yaxshi namunalar misolida tarbiyalashda, shubhasiz, ularni taqlid qilishga bo’lgan maylidan unumli va samarali foydalanish lozim. Bizning farzandlarimiz birovlar nima desa shuni so’zsiz bajaraveradigan emas, balki jamiyatning faol, ongli mehr – oqibatli, muruvvatli quruvchilari bo’lib tarbiyalanmoqlari kerak.

Tarbiyaviy ishda ibrat bo'ladigan qanday namunalardan foydalanish kerak ? Bolalar uchun kim ibrat ? Ular kimga taqlid qilidilar ? Maktabgacha tarbiya muassasalarida va oilalarda tarbiyaviy ish sohasida ibrat bo'ladigan namunalari Sifatida quyidagilardan keng foydalanish mumkin.



1. Ota – onalar namunasi.
2. Yaqin kishilar namunasi.
3. Tarbiyachining o'z namunasi.
4. Tengdoshlar namunasi.
5. Ertaklardagi qahramonlar namunasi.
6. O'tmishdagi ulug' kishilar hayot va faoliyat namunasi.

Bolalarni tarbiyalashda bu ibrat bo'ladigan namunalardan foydalanishning asosiy yo'llarini olib ko'raylik. Dastlab bola oila a'zolaridan iborat oila boshlaydi. Ota – ona va katta yoshdagi a'zolari namunasi kichik yoshdagi bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishadi asosiy manbadir. Ota – bolalarimizning aytganidek ” Qush uyasida ko'rganini qiladi ” . Bolalarning o'z ota – onalari tug'risida tevarak atrofdagi kishilarning yuksak fikrda bo'lishlari bejiz emas. Bolalarning o'zlari ham ota – onalarini juda yuksakka ko'taradilar, o'z ota – onalarini hammadan yaxshi deb biladilar. Shuning uchun ham ular o'z hatti harakatlari va yurish – turishlarida birinchi navbatda ota bilan onaga taqlid qilishga tushadilar.

Ota – onalar o'z bolalariga naqadar tarbiyaviy ta'sir ko'rsatayotganliklarini ko'pincha sezmaydilar. Holbuki ular o'z bolalarini har kuni, har soat, har daqiqada tarbiyalaydilar. Xatto ota – ona va katta yoshdagi boshqa a'zolarining bolalar oldida so'zlagan oddiy so'zlari ham ularning harakatlariga va aqliy jihatdan o'sishiga ta'sir qiladi. Ota – ona bolasiga: “halol” bo'l, “rostgo'y” bo'linglar, biror bir ish qilayotganingda faqat o'zingni emas, balki, boshqalarni ham manfaatini “ko'zla”, deb nasihat qilsa, o'zi yolg'on gapirsa, o'g'rilik qilsa, unda farzandiga noto'g'ri tarbiya bergan bo'ladi. Ko'pgina buvalarimiz Ulug' Vatan urushida qatnashganlari, yoki urushda fidoiylik ko'rsatgan insonlar hayotini so'zlab berish orqali bolalarda Vatanga muhabbat, fidoiylik, do'stlik, mehnatsevarlik tuyg'ularini shakllantiradilar.

Tarbiyachining shaxsan o'zi namuna bo'lishi ayniqsa bolalarga katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Ular tarbiyachining mashg'ulotda va hayotda o'zini qanday tutish atrofdagi kishilar bilan qanday muomala qilishni o'z vazifalarini qanday bajarish kerakligini kuzatib yuradilar. Odatda bolalar tarbiyachining hulqiga uning hatti – harakatiga baho beradilar, binobarin bolalarda unga nisbatan yaxshi yoki yomon muayyan fikr tug'iladi. Ayniqsa tarbiyachining ishi bilan so'zi bir – biriga to'g'ri kelmasa bolalar aslo yoqtirmaydilar. Do'stlik, o'rtoqlik, mehr – muruvvat, mehr – shafqat yuksak va oliyjanob tuyg'ulardir. Odamlar do'stini deb oliyjanob, fidokorona ishlarni qiladilar, shonli va qahramonona botirlik qiladilar. Ularga mehr – shafqat, mehr – muruvvat ko'rsatadilar. Bolalar do'stlik va o'rtoqlik aloqalari ta'siri bilan bir – birlariga ishonkuyar samimiy bo'ladilar.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda mehr – shafqat hissini shakllanishida ertaklarning ta'limiy – tarbiyaviy ahamiyati va rostgo'ylik, botirlik, mehribonlik g'oyalarini ilgari suradilar. Bolalar ertak tinglashni hammadan yaxshi ko'radilar. Ertak qahramonlari esa ularda o'zgacha bir taasurot qoldiradi. Bolalar o'z hatti – harakatlarida o'zlari uchun yoqtirgan qahramonlarga o'xshashga harakat qiladilar.

Bog'cha yoshdagi bolalarda Vatanga sadoqat, yurtga fidoiylik mehr – muruvvat, do'stlik hislarini tarbiyalashni bog'chaga borgan



vaqtidanoq boshlash kerak. Zero, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosh maqsadi ham ana shu ezgu vazifaga hizmat qiladi.

Tarbiyachi mashg'ulotlar, suhbatlar orqali bolalarda fidoyilik, mehr – shafqat hissini singdirishi, vatanparvarlik, do'stlik, halollik tuyg'ularini shakllantirish kabi dolzarb muammolarning yechimini topishda turli usul va metodlardan foydalanishi, yangi pedagogik texnologiyalardan qo'llashi va ularni amaliyotga tadbiiq etish lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. PQ-2707 29.12.2016 2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

2. G.Kushakova .Tolerant schoolchildren - the future of promising uzbekistan, academia an international multidisciplinary research journal (scopus) 1859-1862 b.

3. G. Kushakova, [Maktabdagi yoshdagi bolalarni tolerantlik ruxida tarbiyalash](#) , [Arxiv Nauchnyx Publikasii JSPI: 2020: Arxiv №58 \(science.i-edu.uz, jspi.uz\)](#)

4. .M.Usmonova. Pedagogik jarayon loyihasi – mashg'ulotlar samaradorligininta'minlash vositasi sifatida. Boshlang'ich ta'lim va jismoniy madaniyat yo'nalishida sifat va samaradorlikni oshirish: muammo va yechimlar Xalqaro ilmiy konferentsiya.Toshkent.25 may, 2017 yil.

## **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINI TEJAMKORLIK RUHIDA TARBIYALASHDA TARBIYACHINING O'RNI**

**Azimova Musharraf O'tkirovna**  
**Navoiy davlat pedagogika institutio'qituvchisi**

Maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT) tarbiyachilarini bolalarni tejamkorlik ruhida tarbiyalashdagi o'rni beqiyosdir. Chunki bola deyarli har bir kunining asosiy vaqtini MTTda o'tkazadi. Yana shuni